

“TASDIQLAYMAN”



“Mikrokreditbank” ATB

Boshqaruv raisi o'rinnibosari

I. A. Mamadjanov

2023-yil “\_\_\_”-


“Mikrokreditbank” ATB tomonidan emissiya qilingan bank plastik kartalarini  
jismoni shaxs bo'lgan mijozlarga yetkazib berish (kuryerlik) xizmatlarini  
ko'rsatish bo'yicha

#### TEXNIK TALABLAR

varaqda

2023-yil “\_\_\_”- dan boshlaq amal qiladi.


#### Kiritildi:

Chakana biznes departamenti direktori  
 Q. Komilov  
2023-yil “\_\_\_”-

#### Kelishildi:

Operatsion departamenti direktori  
 N. Abdullayev  
2023-yil “\_\_\_”-

Byudjet-kontrolling va hisobotlar departamenti direktori v.v.b.

 X. Yusupov  
2023-yil “\_\_\_”-

<b>№</b>	<b>Asosiy ma'lumotlar va talablar ro'yxati</b>	<b>Asosiy ma'lumotlar va talablarning mazmuni</b>
<b>1</b>	Buyurtmachi nomi	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki
<b>2</b>	Buyurtmachi manzili	100096, Toshkent sh., Lutfiy ko'chasi, 14.
<b>3</b>	Eng yaxshi takliflarni tanlash turi	Elektron
<b>4</b>	Moliyalashtirish manbasi	Ko'rsatilgan xizmatlar asosida
<b>5</b>	Yetkazish hajmi	Bir yil uchun 50 000 dona
<b>6</b>	Ko'rsatiladigan xizmatlar nomenklaturasi	“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki tomonidan emissiya qilingan bank plastik kartalarini jismoniy shaxs bo'lgan mijozlarga tezkor, ishonchli va sifatli yetkazib berish.
<b>7</b>	Buyurtmaning maqsad va vazifalari	Bank obro'sini himoya qilgan holda mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatisi va jo'natmalarni o'z vaqtida yetkazib berish.
<b>8</b>	Xizmat ko'rsatish uchun talablar	<p>1. Buyurtmalar bank tomonidan ariza berilgan paytdan 2 soat davomiga, ish kunlarida 9:00 dan 18:00 gacha yetkazib beruvchi (kuryer) tomonidan qabul qilinishi zarur.</p> <p>2. Buyurtmalar bankning respublika bo'ylab barcha hududiy bo'linmalari tomonidan berilishi mumkin.</p> <p>3. Ijrochi o'zining dasturiy ta'minotini bank dasturiy ta'minoti bilan integratsiya qilish imkoniyatini taqdim qilishi zarur.</p> <p>4. Ijrochi O'zbekiston Respublikasi bo'ylab barcha hududlarda filiallarga ega bo'lishi shart;</p> <p>5. Ijrochi buyurtmalarni rasmiylashtirish va jo'natmalar holatini elektron shaklda ko'rish (API veb-xizmati), shuningdek, bank kartasi yetkazib berilishini kuzatish (buyurtma holatini onlayn ko'rish, treking) uchun o'zining dasturiy ta'minotini bank dasturiy ta'minoti bilan integratsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lishi shart;</p> <p>6. Ijrochi jo'natmani qabul qilib oluvchi mijozning yetkazib beruvchi xodim (kuryer) bilan bog'lanish imkoniyatini ta'minlab berishi shart;</p> <p>7. Ijrochi bankka jo'natmaning mijozga yetkazilganligini mijozga yuborilgan shaxsiy identifikatsiya kodi bilan tasdiqlash orqali nazorat qilib borish imkoniyatini yaratib berishi shart.</p>

		<p>8. Ijrochi bankka shaxsiy kabinet orqali tizimda (dasturiy ta'minotda) quyidagi funksiyalardan foydalanish imkoniyatini taqdim etishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- kunlik yetkazilgan jo'natmalar reyestrini shakllantirish;</li> <li>- jo'natmaning holatini onlayn kuzatib borish;</li> <li>- jo'natmaning mijozga yetkazilganligini mijozga yuborilgan shaxsiy identifikatsiya kodi bilan tasdiqlash orqali nazorat qilib borish;</li> <li>- jo'natmalar bo'yicha hisobotlarni buyurtmachining kompyuteriga yuklab olish.</li> </ul>
9	Yetkazib berish muddati	<p>1. Yetkazib berish muddati "VIP" va "Standart" tariflariga bo'linishi lozim.</p> <p><b>1) "VIP" tarifida:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Toshkent shahri va bankning hududiy bo'limnalari mavjud hududlarda jo'natmani manziliga yetkazib berish muddati jo'natma Ijrochiga berilgan vaqtidan boshlab 24 soatdan oshmasligi kerak;</li> <li>- Bankning hududiy bo'limnalari mavjud bo'limagan hududlarda jo'natmani manziliga yetkazib berish muddati jo'natma Ijrochiga berilgan vaqtidan boshlab 48 soatdan oshmasligi kerak.</li> </ul> <p><b>2) "Standart" tarifida:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- jo'natmani manziliga yetkazib berish muddati 1 haftadan – 15 kungacha bo'lishi shart.</li> </ul> <p>2. Tariflar uchun alohida to'lov miqdori o'rnatilib, "VIP" tarifi uchun to'lov "Standart" tarifi uchun o'rnatilgan to'lovdan yuqori bo'lishi kerak.</p>
10	Yetkazib berish tartibi	Yetkazib berish O'zbekiston Respublikasining barcha hududlari ichida amalga oshiriladi.
11	Tanlov (konkurs) hujjatlarini elektron shaklda yuklab olish uchun manzil	Maxsus elektorn portal: <a href="http://etender.uzex.uz">http://etender.uzex.uz</a>
12	Taklifni amalga oshirish muddati	<a href="http://etender.uzex.uz">http://etender.uzex.uz</a> saytida e'lon qilingan kundan boshlab 5 kun
13	Tanlov (konkurs) takliflarini qabul qilish manzili va vaqtি	Takliflarni qabul qilish muddatining oxirgi sanasi <a href="http://etender.uzex.uz">http://etender.uzex.uz</a> saytida ko'rsatilgan.
14	Tanlov (konkurs) tili	O'zbek tili

<b>15</b>	Yetkazib turish bo'yicha talablar	1. Ishtirokchi taləb qilinadigan tovarlarni yetkazib berish shartlarining barcha bandlari bo'yicha ishlarni bajarishi kerak. 2. Jo'natmalar respublika bo'ylab mijozning aniq manziliga yetkazilishi kerak.
<b>16</b>	Tovarlarni yetkazib berish (ishni bajarish, xizmat ko'rsatish) muddati	2 yil mucdat davomida
<b>17</b>	Loyihani moliyalashtirish	Yetkazib berilgan bank plastik kartalari hajmini hisobga olib har oyda ko'rsatilgan xizmatlar dalolatnomasi imzolanganidan so'ng moliyalashtiriladi.
<b>18</b>	Birlamchi hujjatlar ro'yxati	Texnik topshiriq, eng yaxshi takliflarni tanlash hujjati, shartnoma loyihesi.
<b>19</b>	Kontrakt valyutasi	So'm
<b>20</b>	Ma'lumotlar uchun telefon	1285 (ichki telefon: 1310, 1311, 1312)
<b>21</b>	Maxsus talab	Buyurtmachi va irochi o'rtaida tuziladigan shartnoma loyihasi bank tomonidan ko'rib chiqiladi va unga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.